



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

ENHANCING THE EFFICIENCY OF CORPORATE GOVERNANCE THROUGH THE IMPLEMENTATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN JOINT-STOCK COMPANIES

¹**Qaraqulov Muzaffar
Abduvaliyevich**

¹*Raqamli iqtisodiyot va agroteknologiyalar universiteti
mustaqil tadqiqotchisi. G-mail: muzaff577@gmail.com
ORCID: 0009-0005-8485-5480*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Milliy strategiyalar va qonunchilik bazasi, shuningdek, Amazon, Samsung va Microsoft kabi yirik korporatsiyalar tajribasi asosida raqamli yechimlarning investitsiyaviy va iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. O'zbek va xorijiy olimlarning fikrlari, statistik ma'lumotlar hamda amaliy jadvallar orqali raqamli avtomatlashtirishning mehnat unumdorligiga ta'siri asoslab berilgan. Shu bilan birga, korporativ boshqaruvda raqamli yechimlarni joriy etishdagi asosiy muammolar va to'siqlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Eng. - This essay provides a scientific analysis of the development of the digital economy in Uzbekistan and the processes of digitalization in the activities of joint-stock companies. Based on national strategies and the legislative framework, as well as the experience of major corporations such as Amazon, Samsung, and Microsoft, the investment and economic efficiency of digital solutions are highlighted. The impact of digital automation on labor productivity is substantiated through the opinions of Uzbek and foreign scholars, statistical data, and practical tables. In addition, the main challenges and barriers to implementing digital solutions in corporate governance are examined, and practical recommendations are proposed to overcome them.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, mehnat unumdorligi, raqamli avtomatlashtirish.*
❖ *digital economy, digitalization, joint-stock company, corporate governance, labor productivity, digital automation.*

Kirish.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyotidagi transformatsiya jarayonlarining asosiy drayveriga aylandi. Ayniqsa, korporativ boshqaruv tizimida raqamlashuvning o'rni beqiyosdir. Chunki zamonaviy kompaniyalar faoliyatida axborotning tezkor va shaffof taqsimlanishi, aksionerlar bilan samarali muloqot hamda strategik qarorlarning sifatli qabul qilinishi

raqamli infratuzilma bilan chambarchas bog'liqdir.

Sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), blokcheyn, bulutli hisoblash va internet narsalar (IoT) kabi yo'nalishlar aksiyadorlik jamiyatlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ushbu texnologiyalar korporativ hisobotlarning aniqligini oshiradi, agentlik muammolarini kamaytiradi va aksionerlar bilan menejment

o'rtasida shaffof muloqot o'rnatadi. Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar korporativ boshqaruv nazariyalari-agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi va transaksiya xarajatlari nazariyasi bilan uyg'un tarzda rivojlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv modellari nafaqat kompaniya samaradorligini oshirish, balki milliy va global raqobatbardoshlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajribada Amazon, Tesla, Samsung va Microsoft kabi yirik korporatsiyalar raqamli transformatsiya orqali bozor qiymatini va aksionerlar ishonchini sezilarli darajada oshirgan [1]. O'zbekistonda esa "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturi doirasida aksiyadorlik jamiyatlarida elektron korporativ boshqaruv tizimlari joriy qilinib, aksionerlar bilan interaktiv muloqot imkoniyatlari kengaymoqda [2].

Raqamli texnologiyalarning korporativ boshqaruv nazariyalari bilan uyg'unligini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidagi amaliy ahamiyatini ochib berish va O'zbekiston tajribasidagi imkoniyatlar hamda muammolarni ko'rsatib berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy iqtisodiyotda korporativ boshqaruv nazariyalari kompaniyalar faoliyatini izohlash va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orasida agentlik nazariyasi va manfaatdor tomonlar nazariyasi raqamli transformatsiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketmoqda. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bu nazariyalarning amaliy qo'llanilishini yangi bosqichga ko'tarmoqda.

Klaus Shvab ta'kidlaganidek, to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiyot, balki davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarni ham tubdan o'zgartirmoqda [3]. Shu bois,

aksiyadorlik jamiyatlari raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali korporativ modellarini yangilashi, raqobatbardoshligini saqlab qolishi va barqaror rivojlanishi mumkin.

Nazariy jihatdan raqamli texnologiyalar korporativ boshqaruv nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir. J. Stiglisning axborot iqtisodiyoti nazariyasida axborot asimmetriyasini kamaytirish va uning samarali taqsimlanishi bozor barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan [4]. Shu nuqtai nazardan raqamli texnologiyalar aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarda ochiqlik va aniqlikni ta'minlaydi, aksionerlar bilan aloqalarni mustahkamlaydi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi agentlik nazariyasi jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. M. Jensen va U. Meklingning tadqiqotlarida qayd etilganidek, kompaniyada agentlik xarajatlari ko'pincha axborot yetishmasligi va manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog'liq bo'ladi [5]. Bugungi raqamli tizimlar ushbu muammolarni kamaytiradi va aksiyadorlar bilan menejerlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ichki faoliyat samaradorligini oshirishga, balki ularning global raqobatbardoshlik imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Professional xizmat ko'rsatuvchi xalqaro tashkilot "Deloitte" tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, korporativ boshqaruv jarayonlariga raqamli yechimlarni integratsiya qilgan korxonalarda samaradorlik 25-30 foiz yuqori bo'lgan [6].

A.V.Gabov o'z tadqiqotida aksiyadorlik jamiyatlarida elektron o'zaro munosabatlarning huquqiy jihatlarini o'rganib chiqadi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalarning qonunchilik asosida mustahkamlanishi aksiyadorlar ishtirokini kengaytiradi va korporativ qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Uning ta'kidlashicha:

“COVID-19 pandemiyasi sharoitida elektron formatdagi ovoz berish va masofaviy ishtirok aksiyadorlarning korporativ boshqaruvdagi rolini mustahkamladi” [7].

Bundan tashqari, milliy tadqiqotchilar ham korporativ boshqaruv va raqamli texnologiyalarning o‘zaro ta‘sirini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Masalan, Sh.Kurbaniyazov korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlashning metodologik jihatlarini o‘rganar ekan, axborot shaffofligi va zamonaviy texnologik vositalarni joriy etish korporativ samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ta’kidlaydi. Muallif bunda raqamli vositalar korporativ mexanizmlarning samaradorligini baholash usullarini takomillashtirishga yordam berishi mumkinligini qayd etadi [8].

O‘zbekiston tajribasida ham raqamli texnologiyalarni korporativ boshqaruvga joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek olimlarning – J.N. Fayzullaev (2022) va F. Xashimov (2021) ishlarida raqamli iqtisodiyotda inson kapitali va raqamli savodxonlikning strategik ahamiyatini ta’kidlagan [9]; [10]. Xususan, ularning fikriga ko‘ra, raqamli korporativ muhitda axborot assimetriyasi kamayadi, aksionerlar bilan muloqot yaxshilanadi va qarorlar qabul qilish jarayoni tezlashadi. Bu esa agentlik nazariyasi va manfaatdor tomonlar nazariyasining amaliy qiymatini yanada kuchaytiradi.

Sh.A. Xusainovning ta’kidlashicha aksiyadorlik jamiyatlari o‘z moliyaviy tizimini samarali boshqarish uchun strategik maqsadlarga erishish, moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish va bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolish yo‘nalishlarida harakat qilishlari zarur [11].

Quyidagi chora-tadbirlar jamiyatning moliyaviy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega:

- ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish va joriy qilish;
- moliyaviy axborotning shaffofligini ta’minlash;

- moliyaviy prognozlar va tahlillar jarayonlarini avtomatlashtirish;
- soliq siyosatidagi o‘zgarishlarga moslashuvchan yondashish.

To‘g‘ri tashkil qilingan moliyaviy tizim kompaniyalarning strategik maqsadlariga erishishiga, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishiga va iqtisodiy muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlab, umumiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida erishiladigan natijalarning ishonchliligi va samaradorligi uning metodologik asoslarining to‘g‘ri tanlanganligi hamda ilmiy talablarga muvofiq ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini o‘rganishda turli nazariy va amaliy yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini avtomatlashtirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Korporativ boshqaruvning an’anaviy mexanizmlari raqamli muhitda samarali ishlashi uchun yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu jihatdan raqamli transformatsiya kompaniyalarning ichki boshqaruv tizimi, moliyaviy hisobotlari va aksiyadorlar bilan kommunikatsiya jarayonlarini tubdan yangilamoqda.

Raqamli texnologiyalar korporativ boshqaruvda axborot oqimini shaffof va tezkor qilish orqali samaradorlikni oshiradi. Aksiyadorlar, menejerlar va kuzatuv kengashi o‘rtasidagi axborot asimetriasini kamaytirishda raqamli platformalar muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali moliyaviy hisobotlar, aksiyadorlar qarorlari va auditorlik xulosalarini real vaqt rejimida taqdim etish imkoni yaratiladi, bu esa barcha ishtirokchilar uchun teng axborot muhitini ta’minlaydi [12].

Raqamli iqtisodiyotni samarali tashkil etish uchun yuqori malakali kadrlar, ya'ni raqamli ko'nikmalarga ega inson kapitali zarur. O'zbekistonda so'nggi yillarda bu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamli

ta'lim, IT parklar faoliyati va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar ortib bormoqda.

Quyidagi jadval raqamli iqtisodiyot sohasida band bo'lgan fuqarolar sonining so'nggi besh yildagi dinamikasini aks ettiradi.

1-jadval

Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etgan aksiyadorlik jamiyatlarida samaradorlik ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar) [13; 14]

T/r	Yillar	Raqamli yechim joriy etgan jamiyatlar ulushi (%)	Mehnat unumdorligi o'sishi (%)	Qaror qabul qilish tezligi (%)
1.	2020	18,2	7,5	10,3
2.	2021	26,4	12,7	18,9
3.	2022	34,9	19,8	25,4
4.	2023	45,7	23,6	33,8
5.	2024	57,2	28,4	41,6

1-jadval orqali, 2020-2024-yillar mobaynida raqamli iqtisodiyot sohasida band bo'lgan fuqarolar soni 112,3 ming kishidan 172,9 ming kishigacha o'sgan. Bu o'sish 1,5 barobar ko'payishni anglatadi. O'sish sur'ati yillar davomida barqaror bo'lib, ayniqsa 2023-yilda 13,4 foizlik yuqori o'sish qayd etilgan. Bu raqamli sohada inson kapitaliga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda korporativ boshqaruvda raqamli yechimlardan foydalanish nafaqat

texnik, balki strategik ahamiyatga ega ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli muhitda ma'lumotlar tezkor almashinuvi, xavfsiz axborot bazalari va sun'iy intellekt vositalari orqali tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi. Bu holat korporativ qarorlar qabul qilishda subyektivlikni kamaytiradi, hisobotlarning aniqligini oshiradi va investision muhitda ishonchni mustahkamlaydi.

2-jadval

Raqamli ko'nikmalar darajasi bo'yicha fuqarolar ulushi (2020–2024 yillar, % hisobida) [15]

T/r	Yillar	Asosiy raqamli ko'nikmalarga ega	Ilg'or raqamli ko'nikmalarga ega	Raqamli ko'nikmalarsiz
1.	2020	47,5	14,2	38,3
2.	2021	52,1	17,6	30,3
3.	2022	56,7	21,9	21,4
4.	2023	60,8	25,7	13,5
5.	2024	63,4	29,8	6,8

Raqamli texnologiyalar agentlik xarajatlarini kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlar menejerlar faoliyatini real vaqtda kuzatish orqali nazorat mexanizmlarini kuchaytiradi va faoliyat

samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, korporativ portallar orqali ovoz berish va hisobot taqdim etish jarayonlari engillashtiriladi.

Bu esa inson kapitaliga investisiya kiritishning samaradorligini ifodalaydi. Aholining raqamli savodxonligini oshirish orqali mehnat bozorida yangi imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Shu bois ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifaga aylandi. Bu jarayon natijasida raqamli iqtisodiyot talablariga mos malakali kadrlar etishtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, innovasion fikrlay oladigan mutaxassislar shakllanadi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholining raqamli savodxonligi yil sayin oshib bormoqda. Agar 2020-yilda aholining 38,3 foizi raqamli ko'nikmalarsiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 6,8 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, ilg'or raqamli ko'nikmalarga ega fuqarolar ulushi qariyb ikki barobarga oshgan. Bu holat ta'lim tizimida raqamli fanlar ulushining ortishi va axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishning o'sishi bilan izohlanadi.

COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli boshqaruvning ahamiyati yanada oshdi. Pandemiya sharoitida korporativ tuzilmalar faoliyatini masofadan turib boshqarish imkoniyatini faqat raqamli korporativ tizimlar ta'minlay oldi. Elektron ovoz berish va onlayn ishtirok etish imkoniyatlari aksiyadorlar faolligini oshirib, korporativ qaror qabul qilish jarayonlariga kengroq bog'lanishni ta'minladi.

Raqamli korporativ boshqaruv tizimlarining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Elektron hujjat aylanishi tizimlari orqali ichki nazorat kuchayib, moliyaviy hisobotlarda haqqoniylik ta'minlanadi, korporativ xatarlar kamayadi. Shu bilan birga, elektron ovoz berish tizimlari aksiyadorlik jamiyatlarining global bozordagi mavqeini mustahkamlaydi va korporativ madaniyatda yangi standartlarni shakllantiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror faoliyati

moliyaviy boshqaruv tizimining samaradorligiga bog'liq. Ma'lumki, raqamli moliyaviy tizimlar axborot oqimini optimallashtirib, ma'lumotlarning shaffofligi va tezkorligini ta'minlaydi. Bu korporativ moliyada ochiqlik darajasini oshirib, aksiyadorlar va boshqaruv organlari o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, raqamli tahlil va prognozlashtirish vositalari orqali daromad va xarajatlar dinamikasini oldindan baholash, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda strategik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bu holat raqamli boshqaruvning texnik emas, balki strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli korporativ muhitda inson kapitali muhim omil hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning markaziy omili inson kapitali bo'lib, xodimlarning raqamli savodxonligi va innovasion tafakkuri korporativ tizim muvaffaqiyatini belgilaydi. Inson resurslarining raqamli salohiyati korporativ raqobatbardoshlikning asosiy manbai hisoblanadi.

Xalqaro amaliyot tahlillari ham raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Deloitte tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, korporativ boshqaruv jarayonlariga raqamli echimlarni integrasiya qilgan korxonalarda mehnat unumdorligi 25-30 foizga, qaror qabul qilish tezligi esa 40 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin [16].

Xulosa va takliflar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni raqamli asosda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili va amaliy tajribalarga asoslanib, quyidagi asosiy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, yagona raqamli korporativ boshqaruv platformasini yaratish zarur.

Bunday tizim aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va menejment o'rtasida axborot almashinuvini avtomatlashtirib, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Bu korporativ faoliyatning ochiqqligini ta'minlaydi hamda aksiyadorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, moliyaviy hisobot va audit jarayonlarini raqamlashtirish maqsadga muvofiq. Elektron hisobot tizimlari inson omilining ta'sirini kamaytiradi, xatolik ehtimolini pasaytiradi va hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlaydi. Bu auditorlik faoliyatini yengillashtirib, ichki nazorat samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, inson kapitali va raqamli savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatlarida xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, ularda innovasion fikrlash va raqamli madaniyatni shakllantirish korporativ barqarorlikni ta'minlaydi. Bu yo'nalishda korporativ ta'lim va qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, raqamli korporativ boshqaruvning huquqiy asoslarini

mustahkamlash talab etiladi. Elektron ovoz berish, onlayn yig'ilishlar va masofaviy ishtirok jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish aksiyadorlar huquqlarini himoya qiladi va korporativ qarorlar qabul qilishni tezlashtiradi.

Beshinchidan, raqamli xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimini avtomatlashtirish zarur. Raqamli monitoring va tahlil vositalari orqali moliyaviy va operasion xatarlar oldindan aniqlanib, ularning ta'sirini kamaytirish mumkin. Bu korporativ barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni raqamli asosda takomillashtirish kompaniya samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, ilgari surilgan takliflar - yagona raqamli boshqaruv platformasini yaratish, hisobot va auditni raqamlashtirish, inson kapitali salohiyatini oshirish, huquqiy asoslarni mustahkamlash hamda raqamli xavflarni boshqarish - korporativ boshqaruvning shaffofligi, tezkorligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wang X., Li Y., Chen Z. *The Impact of Digital Transformation on Enterprise Performance: The Mediating Role of Dual Innovation and the Moderating Role of Management Power // Sustainability*. - 2024. - Vol. 16, No. 21. - P. 9298. - DOI: 10.3390/su16219298
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar haqida ma'lumot. - T.: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti, 2024. - URL: <https://old.gov.uz/uz/news/view/34017>
3. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. - Geneva: World Economic Forum, 2016. - 172 p.
4. Stiglitz, J. E. (2001). *Information and Market Failure*. *American Economic Review*, 92(3), 460-498.
5. Jensen M., Meckling W. *Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics*. - 1976. - Vol. 3. - P. 305-360.
6. Deloitte. *Digital Transformation 2020: Corporate Governance and Technology Integration*. - New York, 2020. - 55 p.
7. Gabov, A. V. (2021). *Electronic Interaction and Digital Technologies in the Corporate Governance of Joint-Stock Companies in Russia*. *Lex Russica*, (5), 45-56.
8. Kurbaniyazov, Sh. (2016). *Korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari*. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 6-son, 1-7-betlar.

9. Fayzullaev J.N. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali va axborot texnologiyalarining ahamiyati // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2022. – №3. – B. 44-52.
10. Xashimov F., Faxriddinova Z. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali va raqamli savodxonlikning ahamiyati // Ilmiy axborotlar jurnali. – 2021. – №2. – B. 61-69.
11. Xusainov Sh.A. Aksiadorlik jamiyatlari moliyaviy tizimining asosiy elementlari kapital tuzilishi, dividend siyosati va moliyaviy barqarorlikning nazariy jihatlarini. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 12-son 233-2410. (2024).
12. Каплун, С. И. (2021). Цифровая трансформация корпоративного управления. – Москва: Наука, 210 с.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. «Raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida». - Toshkent: Prezident hujjatlari to'plami, 2020.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy ma'lumotlar portalini - <https://stat.uz>
15. Kaplun, S. I. Human Capital and Digital Transformation // Economics and Innovation Review. - 2023. - № 4. - S. 55-68.
16. Deloitte. Digital Transformation 2020: Corporate Governance and Technology Integration. – New York, 2020. – 55 p.